

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**

<i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing .....</i>	166
<i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>	171
<i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i>	176
<i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari .....</i>	180
<i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash .....</i>	184
<i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til .....</i>	189

## II SHUBA

<i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны .....</i>	193
<i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.) .....</i>	199
<i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>	205
<i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i>	208
<i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>	211
<i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>	213
<i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>	218
<i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzetiv davr va nutq rivojlanishi .....</i>	222
<i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari .....</i>	226
<i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar .....</i>	230
<i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>	234
<i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar .....</i>	237
<i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi .....</i>	242
<i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>	247
<i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar .....</i>	251

vaqtda AQSHda juda ko'p nufuzli universitetlar joylashgan va yana chet tillarini o'rganish orqali juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'lishimiz mumkin. Ya'ni xalqaro imtihonlardan yuqori ball to'plagan talabalarga xorijdagi nufuzli universitetlar grand asosida o'qishni taklif qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://kun.uz/uz/news/2019/12/15/ingliz-tilini-bilish-reytingida-ozbekiston-yuzta-davlat-orasidan-95-orinda-qayd-etildi>
2. [https://www.google.com/search?q=is+sat+only+valid+in+usa&oq=is+sat+only+valid+in+usa&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQIRigAdIBCjE1NzgwajBqMTWoAgCwAgA&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?q=is+sat+only+valid+in+usa&oq=is+sat+only+valid+in+usa&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQIRigAdIBCjE1NzgwajBqMTWoAgCwAgA&sourceid=chrome&ie=UTF-8)
3. [https://www.google.com/search?q=hiw+many+students+take+sat+exam+in+2023&oq=hiw+many+students+take+sat+exam+in+2023&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIJCAEQIRgKKGKABMgkIAhAhGAoYoAEyCQgDECEYChigATIJCAQQIRgKKGKAB0gEJMTU1OTFqMGo3qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=U](https://www.google.com/search?q=hiw+many+students+take+sat+exam+in+2023&oq=hiw+many+students+take+sat+exam+in+2023&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIJCAEQIRgKKGKABMgkIAhAhGAoYoAEyCQgDECEYChigATIJCAQQIRgKKGKAB0gEJMTU1OTFqMGo3qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=U)
4. <https://daryo.uz/en/2023/04/27/youth-affairs-agency-reimburses-ielts-fees-of-more-than-10000-uzbek-youngsters>
5. <https://grantlar.uz/blog/sat-imtihoni-nima-qayerda-qachon-qanday/>
6. <https://grantlar.uz/blog/sat-imtihoni-nima-qayerda-qachon-qanday/>
7. SAT Advanced Practise , Kaplan , New York 2017 , 5-6
8. SAT Total Prep 2019 , Kaplan , New York 2018 , 8-9

## **TIL VA MARKETING**

**Normurodova Sevinch Behzod qizi<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Marketing haqida umumiy tushunchalar, Xorijiy tillarning bizga qanchalik kerakligi va hayotimizdagi o'rni qay darajada muhimligi, hamda til va marketing o'rtasidagi bog'liqliklar, til va marketingning jamiyatdagi o'rni kabilar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Marketing, xorijiy tillar, iste'molchilar, madaniyat, qadriyat, munosabat, kompaniya va bozor munosabatlari, globallashuv.<sup>23</sup>

Til va marketing XXI asrda insonlarning eng ko'p e'tiborini tortgan narsa desak adashmagan bo'lamiz. Hozirgi davrda hayotimizda turli tillarni o'rganishga

---

<sup>23</sup> Globallashuv – <https://wordsbyapro.com>

bo'lgan ehtiyoj juda rivojlangan. Marketing-bu firmaga foyda keltirgan holda insonlar ehtiyojini qondirishdir. Marketing<sup>24</sup> (**inglizcha: market –“bozor”, “bozordagi harakat”, “faoliyat”**)-korxonaning tovarlar ishlab chiqarish va sotishini tashkil etish hamda boshqarish shakli hisoblanadi.

Marketingning maqsadi –yangi mijozlarni mahsulot, tovar yoki xizmat uchun jalb qilish, ularga yuqori iste'mol sifatini taklif qilib, eski mijozlarni saqlab qolgan holda, ularning tinimsiz o'zgarib turuvchi ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Marketingning asosiy vazifasi – har bir bozorni ehtiyojlari va zaruriyatlarini aniqlash, ular orasidan o'z kompaniyalari boshqa raqobatchilardan ko'ra yuqori darajali xizmat ko'rsata oladiganlarini tanlashdan iborat. Bu kompaniyaga yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va shuning natijasida iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish bilan kompaniyaning umumiy foydasini oshirishdir. Marketingga birinchi bo'lib XIX asrning 60-yillarida Makkovern tomonidan asos solingan. Marketing ilk marotaba XX asr boshlarida AQSH da qo'llanila boshlangan. AQSH va boshqa xorijiy davlatlar iqtisodiy adabiyotlarida marketing ta'rifining ko'p turlari mavjuddir. Eng keng tarqalgan marketing ta'rifi, u Amerika marketing assotsiatsiyasi tomonidan berilgan bo'lib, uning mazmuni quyidagichadir, ya'ni “Marketing” shunday jarayondan iboratki, uning yordamida o'ylangan g'oya rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, narxlar tashkil etiladi, g'oyalar tovarlar va xizmat ko'rsatishlar harakati va sotishni, ayrim shaxslar va tashkilotlarni maqsadlari ayirboshlash yordamida qondiriladi. Marketing asosida bozorni har taraflama o'rganish yo'nalishlarining asosiylaridan quyidagilarni ko'rsatib o'tish zarur:

- talabni o'rganish;
- bozor tarkibini aniqlash;
- tovarni o'rganish;
- raqobat sharoitlarini tatbiq qilish;
- sotish shakli va uslublarini tahlil etish.

---

<sup>24</sup> Marketing – <https://wordsbyapro.com>



### 1-rasm Marketing o'rganish tarmoqlari<sup>25</sup>

Insoniyat yaralibdiki odamlar bir-birlari bilan o'zaro til orqali muloqotga kirishib kelishmoqda. Til bu xalqlarni bir-biriga bog'lovchi betakror fenomen <sup>26</sup> hisoblansa, boshqa tarafdin esa turli millatlarni bir-biridan ajratuvchi o'ziga xos noyob hodisadir. Bugungi kunda til o'rganish juda ham muhim hisoblanadi. Bunga misol qilib tarixni olishimiz mumkin. Tarixdan ma'lumki qaysi xalq vakillari qancha ko'p til bilsa shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo'liga chiqqan olgan. Xo'sh endi chet tillarini bilishning qanday manfaatli tomonlari bor? Bunga quyidagicha javob berishim mumkin. Birinchi navbatda chet tillarini o'rganish bu boshqa madaniy muhitga kirish, yangi do'stlar orttirish, tur xil sayohatlar, shaxsiy kariyera kabi imkoniyatlarni beradi. Xalqimiz orasida bir gap bor "Til bilgan - el biladi".

Bugungi kunda jahondagi juda ko'plab mamlakatlarda o'z ona tillaridan tashqari bir qancha chet tillarini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Bu bejiz emas albatta, chunki boshqa xalqlarning urf-odati, turmush tarzi umuman olganda o'sha xalq qalbini bilishi lozim. Bizning mamlakatimizda bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz biz yoshlarga barcha sharoitlarni

<sup>25</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>26</sup> Fenomen – <https://www.statista.com>

yaratib bermoqdalar. Biz bundan faxrlanishimiz va bu sharoitlardan vaqtida foydalanib qolishimiz kerak. Hozirgi kunga kelib ayniqsa, ingliz tiliga bo'lgan e'tibor juda kuchaydiki, hattoki, bog'chalarda ham bolalar uchun ingliz tilidan boshlang'ich bilimlar berib borilmoqda. Bundan tashqari har bir ishlayotgan kadrlardan til bilish darajasi ya'ni IELTS hamda CEFR sertifikatlari talab qilinmoqda. Yurtimizda qayerga ish so'rab bormang har qayerda til bilishingizga qarab ishga olishadi.

### **Xorijiy tillarni o'rganishning 7 muhim sabablari:**

- 1. Fikrlashingizni rivojlantiradi.** Xorijiy tillarni o'rganish insonni ochiq fikrlashga undaydi va mutlaqo yangi madaniyat va dunyoqarashga singib ketish, ochiq fikrlaydigan, tez tushunadigan, bag'rikeng shaxsga aylanishingizga yordam beradi. Bundan tashqari tadqiqotlarning ko'rsatishicha bir necha tillarni bilish yaxshi fikrlash, muammolarni osonlikcha hal qilish va ijodkorlik bilan bog'liq. Shuningdek u odamlarga noma'lum va notanish vaziyatlarni yengishga yordam beradi.
- 2. Xotirangizni yaxshilaydi.** Olimlarning aytishicha, bir tilni bilgan bolalarga nisbatan ikkita yoki uchta tilni bilgan bolalar xotirasi juda yaxshi rivojlangan, hamda atrofdagi bolalarga nisbatan xotirasi kuchli hisblanar ekanlar.
- 3. Ko'plab do'stlar orttirish imkonini beradi.** Chet tillarini o'rganayotgan insonlarda yangi do'stlar orttirishga bo'lgan qiziqish kuchayadi va ular bunga harkat qila boshlaydilar. Til bu insonni his-tuyg'ularini, istaklarini ifoda etishga va atrofdagi boshqa odamlar bilan bog'lanishda yordan beradi va mazmunli munosabatlarni shakllantiradi.
- 4. Ishlash imkonini oshiradi.** Hozirgi davrda chet tillarini bilgan insonlar eng omadli va baxtli insonlar hisoblanishadi chunki til – bu ish, ish esa – bu pul hisoblanadi. Chet tilini o'rganish ish topish uchun keng imkoniyatlarni beradi. Hech kimga sir emaski chet tilini o'rganish ish bilan ta'minlash istiqbollari yaxshilashi mumkin. Yuqorida aytib o'tganim singari, har bir menejer <sup>27</sup>qo'l ostida ishlayotgan xodimining bilimli bo'lishini xohlaydi va menejer uchun xodimining til bilish darajasi muhim hisoblanadi. Va menejer uchun eng muhimi xodimning kompaniyaga foyda keltirishi hisoblanadi. Dunyo tobora globallashib bormoqda va ikki til bilish shunchaki qiziqish emas balki zamon talabidir.
- 5. Yangi qadriyat va madaniyatlarni bilish.** Ma'lum bir til o'rganayotgan insonlarda aynan o'sha davlat tilini o'rganish bilan kifoyalanibgina emas balki, u davlatning madaniyati va qadriyatini ham o'rganish imkoni paydo bo'ladi.
- 6. Ilmiy yutuqlarni oshiradi.** Til o'rganish akademik yutuqlarni qo'llab quvvatlaydi. Bu chet tilini o'rganayotgan ingliz tilida so'zlashuvchi talabalar, shuningdek ikki tilli va immersion<sup>28</sup> dasturida ingliz tili o'rganuvchilari uchun amal qiladi.

---

<sup>27</sup> Menejer <https://uz.m.wikipedia.org>

<sup>28</sup> Immersion <https://www.texnoman.uz>

7. **Sayohat osonlashadi va arzonlashadi.** Albatta ko'p insonlar sayohat qilishni xush ko'rishadi. Chet davlatlariga borganingizda til bilishingiz sizga juda foyda beradi. Oddiygina ovqatlanishga borganingizda yoki yo'l so'raganingizda qiynalmasdan mahalliy aholi bilan oson muloqot qila olasiz. Agar siz o'zingiz bilan tarjimon olsangiz bu siz uchun ortiqcha pul sarflashingizga sabab bo'ladi.

Til va Marketing o'rtasidagi bo'liqlikka keladigan bo'lsak bugungi jadal rivojlanayotgan jamiyatda globallashuv har qanday kompaniya uchun eng muhim narsalardan biriga aylandi. Rivojlanayotgan ko'plab kompaniyalar uchun globallashuv biznes amaliyotlarini butun dunyo mamlakatlariga kengaytirishni anglatadi. Ushbu ortib borayotgan ehtiyoj tufayli til va tarjima biznes muvaffaqiyatining muhim qismiga aylandi.



## 2-rasm Marketingdagi xatoliklar

Oddiygina misol tariqasida siz ushbu suratga etibor qarating. Birgina e'tiborsizlik sababli katta bir kompaniya inqirozga yuz tutmoqda ya'ni hammamizga ma'lumki, BAA davlatining alifbosi boshqa davlatlarnikiga nisbatan tubdan farq qiladi. Ko'pgina davlatlarda alifbo chapdan o'ngga o'qilsa ushbu mamalakatda esa harflar o'ngdan chapga tomon o'qiladi. Ular oddiygina suratlardan ushbu kompaniya nima demog'chiligini tushinib olishgan va "COLGATE" ni bekor qilishgan. Xa, bunga sabab esa marketologlarning bilimsizligi yoki til bilmasligi, balki oddiygina e'tiborsizlik ham sabab bo'lishi mumkin. Ushbu xato yillar o'tgan sayin "COLGATE" kompaniyasining tajribali va bilimli kadrlari tomonidan yana qayta ishlab chiqilgan. Shu jumladan, bular sirasiga "COCA-COLA" mahsulotini ham qo'shsak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, til bilmasdan marketingga qo'lurush bu eng katta xato. Aks holda yuqorida aytib o'tgan birgina xato sababli butun boshli kompaniyangiz inqirozga yuz tutishi mumkin. Siz qancha ko'p til bilsangiz shuncha ko'p eshiklar siz uchun ochiladi. Til bilish har bir inson uchun yangi imkoniyat kalitidir. Aynan til bilish yunyoni anglash demakdir. Til bu millatlar o'rtasida ko'prik

vazifasiti o'tovchi vosita undan undan qo'rqmay hatlab o'tganlar yutuq va yangi olamlar kalitini qo'lga kiritadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sabirov, K. (2024). Econometric modeling of development trends in the food industry. *Nordic\_Press*, 1(0001).
2. Nusratovich, S. K., & Asidakhan, A. (2023). STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 7-10.
3. Nusratovich, S. K., & Khurshidbek, T. (2023). RELATIVE IMPORTANCE OF FACTORS AFFECTING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 788-794
4. <https://www.statista.com>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>
6. <https://wordsbyapro.com>
7. <https://nauchniyimpuls.ru>

## EAST ASIA COUNTRIES LANGUAGES AND CULTURES

**Odilova Dilzoda Orifjonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>*Nordic International University  
Direction of foreign language and literature  
1st year student of group 1-XT-23*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>*Doctoral student of the Nordic International University  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotation:** This article informs about East Asia countries language and culture. East Asia includes China, Hong Kong, Japan, Macau, Mongolia, North Korea, South Korea, and Taiwan. Content related to these countries culture and language

**Key words:** East Asia countries, language, history, century, culture, year, civilization, dynasties traditon, letter, East Asia, China, Hong Kong, Makkao, Mangolia, Japan, Korea,

East Asia is home to some of the world's oldest civilizations. Chinese history stretches back more than four thousand years, and its early empires—some of the wealthiest in history—invented paper, movable type (in printing), gunpowder, and the compass.

**Chinese** culture is one of the world's oldest cultures, originating thousands of years ago. Chinese civilization is historically considered a dominant culture of East Asia. With China being one of earliest ancient civilization Chinese culture exerts profound influence on the philosophy, virtue, etiquette, and traditions of Chinese